



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

EFIR MOYI, FLOVONOID VA SAPONIN SAQLOVCHI DORIVOR O'SIMLIKLARNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ЭФИРОМАСЛИЧНЫХ, ФЛАВОНОИДНЫХ И САПОНИНСОДЕРЖАЩИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В НАРОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ

IMPORTANCE OF ESSENTIAL OIL, FLAVONOID AND SAPONIN- CONTAINING MEDICINAL PLANTS IN THE NATIONAL ECONOMY

Yarmuhammedov Jasur Mansurovich

BuxDU o'qituvchi.

Sadullayeva Jasmina Sherali qizi

Rajabova Ruxshona Rustam qizi

Mirjonova Sitora Odilbek qizi

BuxDU talabalari

Annotatsiya: Ma'lumki, dunyo miqyosida juda ko'plab dorivor o'simliklar mavjud. Shu dorivor o'simliklar kimyoviy tarkibiga ahamiyat berilganda bir o'simlikning o'zida bir necha xil kimyoviy moddalar borligi aniqlangan. Xalq tabobatida o'simlik turli xil kasalliklarga shifo bo'ladi.

Kalit so'zlar: Saponinlar, flavonoid, efir moylari, vitaminlar, poya barg, gul, meva.

Аннотация: Известно, что в мире существует множество лекарственных растений. При рассмотрении химического состава этих лекарственных растений было установлено, что в одном растении содержится несколько различных химических веществ. В народной медицине растение лечит различные заболевания.

Ключевые слова: Сапонины, флавоноиды, эфирные масла, витамины, стеблевой лист, цветок, плод.

Abstract: It is known that there are many medicinal plants in the world. When considering the chemical composition of these medicinal plants, it was found that one plant contains several different chemicals. In folk medicine, the plant cures various diseases.

Key words: Saponins, flavonoid, essential oils, vitamins, stem leaf, flower, fruit.

Bibershteyn bo'ymodoroni Bo'yi 15-75 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik. Poyalari bir nechta, tik o'sadi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan. Barglari tekis yoki tishsimon qirrali, nashtarsimon bo'laklarga patsimon ajralgan bo'lib, bandi yordamida (ildizoldi to'pbarglari va poyasining pastki qismi dorilari) yoki (poyasining yuqori qismidagilari) poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Savatchalarda to'plangan mayda, sariq rangli gullari poyasi bilan shoxlari uchida joylashgan qalqonsimon gul to'plamni hosil qiladi. Mevasi pista. May oyidan sentabrgacha gullaydi, mevasi iyun sentabr oylarida yetiladi.

Geografik tarqalishi: Bu turdagi bo'yimadaron cho'llarda, yarim cho'llarda, tog' etaklaridan to tog'larining o'rta qismigacha bo'lgan tosh tuproqli tog' yonbag'rlarida, shag'alli joylarida, soylarda ariq bo'ylarida, o'tloqlarda sho'r yerlarda, begona o't sifatida ekinzorlarda va bog' yonbag'rlarida o'sadi.

Kimyoviy tarkibi va xalq tabobatida ishlatilishi: Bo'yimadoron turlari garchi efir moyi saqllovchi o'simliklarga kirsada, lekin kimyoviy tarkibi jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Bibershteyn bo'yimodaronning yer ustki qismi tarkibida 0,13-0,52% efir moyi, alkaloidlar, 0,36% flavonoidlar (giperozid, lyuteolin, apigenin), 1,37% organik kislotalar, 74,8mg% vitamin C va K, 2,50 % gacha qandlar, smola, achchiq, 1,41-0.62 % oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yer ustki qismining efir moyi 63% gacha sineoldan, 40% gacha p-simol, 10% aterpineol, kamfara va boshqa terpenlardan iborat.

Santolinli bo'yimodaron yer ustki qismi o'z tarkibida 0.11% gacha efir moyi, achchiq santolin va santolinoid hamda boshqa moddalar saqlaydi. Efir moyi 56% gacha komfora, 20% gacha sineol, 15% linyon va boshqa terpenoidlardan tarkib topgan.

Bo'yimodaronning yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi yoki qaynatmasi xalq orasida me'da kasaliklariga, o'pka sili va bosh og'rig'iga davo qilinadi hamda turli oqishlarida qon oqib turgan yaralarni davolash sepiladi. Astma kasalligida bo'yimodaron turlari gulidan tayyorlangan damlamasi yoki qaynatmasiga novvot qo'shib ichiriladi.

Qushtoron (qiziltasma, chumchuq tili)lot: gores pitchiy -polygonum aviculare; Qushtoron (qiziltasma) bir yillik, 10-60 sm balandlikda o't o'simlik. Poyasi bo'g'inli, shoxlangan. Barglari cho'ziq lansetsimon, to'mtoq uchli, tekis qirrali bo'lib, poya va shoxlarida bandi yordamida ketma-ket joylashgan. Mayda, pushti rangli gullari 1-5 tadan barg qo'ltigida joylashgan. Mevasi-uch qirrali, qora rangli yaproqcha. May-oktabr oylarida gullaydi va meva yetiladi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibi flavonoid (avikulyarin, kversitrin, giperozid va boshqalar) efir moyi, vitamin K va C (120-887mg%) karotin saponinlar, kumarinlar, 2,65% qand, shilliq, 3-4% oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yer ostki qismidan tayyorlangan dori preparat akusherlik ginekologiya amalyotida tuqqandan va abortdan so'ngi qon oqishini to'xtatuvchi hamda buyrak va buyrak tosh kasalligida siydik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

O'simlik damlamasi xalq tabobatida ich ketishi me'da-ichak yarasi, bergak, buyrak, jigar, o'pka sil kasalliklarini davolash uchun hamda siydik va gijja haydovchi, qon oqishini (tuqqan va abortdan so'nggi to'xtatuvchi, organism tonusini ko'taruvchi vosita sifatida.

Mavrak - *Salvia officinalis* L. Lamiaceae - yasnotkaguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. O'rta Yer dengizi bo'yi butasi. Ildiz baquvvat yog'ochlashgan, 4-tartibgacha tarmoqlangan, sertarmoq ildizning asosiy qismi tuproqning 10-15sm lik qatlamida joylashgan, ko'pi bilan 68sm chuqurlikkacha yetib boradi. O'rta dengiz bo'yi mamlakatlarning tog'li yerlarida tabiiy sharoitga o'sadi. Shimoliy Kavkaz, Qrim, Moldovada ekib o'stiriladi.

Kimyoviy tarkibi. Mavrak to'pgullariga 0,58% efir moyi, o'tida qumarinlar, flavanoidlar, saponinlar va boshqa moddalar bor.

Ishlatilishi. Mavrak barglari sharbatidan burishtiruvchi, mikroblarni yo'qotuvchi, yallig'lanishga qarshi vosita sifatida, og'iz shillig'i pardasining yallig'lanishi kasalliklarida, og'iz va tomoqni chayishda ishlatiladi. Yurak dorilari va boshqa vositalar tarkibiga kiradi. Gullari mikroblarni yo'q qiluvchi „salvin“ dorisini olishda qo'llaniladi.

Baland (Manchujuriya) araliya - *Aralia elata* (miq) seem (*Aralia mandshurica* Rupr et Maxim) araliyadoshlar –Araliaceae oilasiga kiradi.

Bo'yi 5m yetadigan daraxt. Tanasi tikanlar bilan qoplangan. Bargi yirik ikki uch marta patsimon murakkab uzunligi 1 m. Mevasi sharsimon, ko'k qora rangli 5 ta danakli ho'l meva iyul avgust oylarida gullaydi, mevasi oktabrda pishadi.

Kimyoviy tarkibi: Ildizi tarkibidan triterpen soaponinlar, smolalar, efir moyi va aralin alkaloidi bo'ladi. Ildizning soaponinlar yig'indisidan A B va C aralozid B va C lar tetrozidlar bo'lib ularning hammasi gidrolizlanganda oleanol kislota (aglikon) va

2 yoki 3 molekula qand (glukoza , arabinoza, galaktoza yoki ksiloza) hamda bir molekula glukuron kislota ajratadi.

Ishlatilishi: Bu o'simlik preparati jenshen o'simligi preparatlariga o'xshash (lekin kuchsizroq) ta'sirga ega bo'lganidan jenshen preparatlari o'rnida ishlatiladi.

Dorivor preparati: Nastoyka "saparal" preparati (aralozid A, B va C ning ammoniy tuzlari yig'indisi, tabletka holidi chiqariladi).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xalq tabobatida o'simliklar turli xil kasalliklarga shifo bo'ladi. Bo'yimodorondan astma kasalligi, mavrakdan yallig'lanishga qarshi, qushtorondan siydik va gijja haydovchi sifatida xalq orasida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu o'simliklar tarkibida soaponin alkaloid, flavonoid, efir moylar saqlaydi va bular inson salomatligi uchun katta ahamiyatga ega.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.A.Sobirov, L.D Farmonova, Z.S.Salohiddinov, M.Z.Rizamuhammedova (2019), Dorivor o'simliklar atlas, Toshkent-Noshir-2019.
2. H.X.Xolmatov, O'. A. Ahmedov (2007) Farmakognoziya II qism, Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2007
3. Yarmuhammedov, Jasur. "БИОЛОГИЯ, ЦВЕТЕНИЕ И СЕМЕННАЯ ПРОДУКТИВНОСТЬ БУКВИЦЫ ОЛИСТВЕННОЙ (STACHYS BETONICAEFLORA)." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 44.44 (2023).
4. O'G'Li, Rustam Muydinov Xasan, Yarmuhammedov Jasur Mansurovich, and Muxiddinova Nafisa Sirojiddin Qizi. "SAMARQAND BO 'ZNOCH (HELICHRYSUM MARACANDICUM POPOV EX KIPR.) YETISHTIRISH AGROTEKNOLOGIYASI." Science and innovation 2.Special Issue 11 (2023): 272-279.
5. Yarmuhammedov, Jasur. "ТОҒ ҚУДДУСИ (STACHYS BETONICAEFLORA) НИ ГУЛЛАШ БИОЛОГИЯСИ ВА УРУҒ МАҲСУЛДОРЛИГИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 41.41 (2023).
6. Buriyev, S. B., et al. "The current state and hydrochemical characteristics of the ichthyofauna of the Zamanbobo natural reservoir." BIO Web of Conferences. Vol. 116. EDP Sciences, 2024.